

**TARJIMA JARAYONIDA SUN'YI INTELLEKTNING AHAMIYATI, INSON  
TARJIMASI AFZALLIKLARI. SUN'YI INTELLECT VA INSON: GIBRID  
MODELI**

**Vaziraxon Xudayberdiyeva**

*Turon Universiteti Andijon Kompusi, 1-kurs magistr*

*Tel: +99891 493 17 15*

*E-mail: vaziraxudayberdiyevagmail.com*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 19.12.2025*

*Revised: 20.12.2025*

*Accepted: 21.12.2025*

**KALIT SO'ZLAR:**

*sun'iy intellect, inson  
tarjimasi, mashina  
tarjimasi, tarjima  
modellari, tarjima  
jarayoni, gibrid  
model*

*Ushbu maqolada tarjima jarayonida sun'iy intellektning qo'llanilishi va uning tarjimashunoslikda qanchalik ahamiyatga molik ekanligi yoritiladi. Sun'iy intellektning tarjimada foydalanishning afzalliklari, kamchiliklari ko'rib chiqilgan. Inson va AIning tarjimadagi madaniy, hissiy pragmatic, uslubiy taraflaridagi farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, inson va AIning birgalikda tarjima qilishi, ya'ni tarjimon nazorati ostidagi gibrid modelini taklif qiladi*

Globalashgan va raqamli texnologiyalar gullagan davrda insoniyatda tillararo muloqot qilish ehtiyoji oshib bormoqda. Bu jarayon inson tomonidan qilinadigan tarjimani Sun'iy intellektga asoslangan neyron tizimlarga bog'lamoqda. Hozirgi vaqtda, Google translate, DeepL, Chat GPT kabi neyron tarmoqlar odamlar o'rtasida keng foydalanilmoqda.

Lekin, mashina tarjimasi takomillashuviga qaramay, inson tarjimoni ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. chunki har bir tilning o'zining semantic, pragmatic, madaniy, emotsional va uslubiy xususiyatlari mavjud. Ushbu maqolaning maqsadi AIning afzalliklari va kamchiliklari, u va inson o'rtasidagi farqlarni aniqlashdir, hamda ularning birgalikda qilgan faoliyati imkoniyatlarini ko'rsatishdir.

Biz bilamizki, tarjima – bu bir tildagi matnlarni ikkinchi bir tilga mazmunan mos, tushunarli qilib o'girishning murakkab jarayoni bo'libgina qolmay, u nafaqat so'zlarni, balki gaplarni, matnni, mazmunni, madaniyatni va emotsionallikni ham ifodalaydi. Lawrence Venuti tarjimani shunday izohlaydi: tarjima – matnni bir madaniyatdan ikkinchi madaniyatga ko'chirish jarayoni bo'lib, tarjimonning tanlovi matnning qabul qilinishiga ta'sir qiladi. Susan Bassnett esa “tarjima- madaniyatlararo muloqot jarayonidir” deya e'tirof etadi. Bu fikrlar tarjimaning asosiy maqsadi kontekstdagi mazmunni to'liq va ifodali tarzda bayon etish lozimligini ko'rsatadi. Tarjimon matnni xar tomonlama o'rganib, uning xar bir so'zini leksik, semantic va sintaktik jixatlarini xisobga olgan holda, uning ekvivalentini topib, tabiiy ifoda etishi kerak. Chunki har bir tilning o'ziga xos ma'no qatlamlari va leksik, grammatik xususiyatlari mavjud.

Shuningdek, tarjima jarayonida so'zlar konnotativ, denotative, stilistik, funksional o'xshashlik darajalariga bo'linadi. Bu darajalar matnning qaysi turda (badiiy, publitsistik, ilmiy, rasmiy, texnik) ekanligiga qarab o'zgaradi. Masalan badiiy tarjimada hissiy bo'yoqdorlik yuqori bo'lsa, ilmiy tarjimada terminologik va aniqlik ustuvor bo'ladi.

So'ngi yillarda sun'iy intellect texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarjimashunoslik sohasiga ham katta o'zgarishlar olib keldi. Ayniqsa, mashina tarjimasi (machine translation) tizimlarining takomillashuvi tarjima jarayoni avtomatlashtirilishiga sabab bo'lmoqda. Dastlabki yillarda suniy intellect semantic va grammatik xatolar va kamchiliklarga boy bo'lgan bo'lsa, hozirda ana shu kamchiliklarni ko'pining o'rnini neyron tarmoqlarga asoslangan tarjima tizimlari yaxshilamoqda. Chat GPT, DeepL, Google Translator kabi tarjima modellari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu platformalar tarjimada semantic moslik, kontekstual tahlil va nutqiy silliqlikni ifodalash imkonini bermoqda. Bu tizimlar tilni inson miyasida qayta ishlash jarayonidek o'xshash modellar asosida ishlaydi, ular so'zlarni emas, balki butun bir matnni yaxlit xolda tarjima qiladi.

Mazkur tarjima modellari inson tarjimasiga bir qator yengilliklar kiritdi. Sun'iy intellect bir necha soniyada katta bir matnni tarjima qila oladi. Bu tarjimonlar va ilmiy izlanuvchilar uchun eng muhim narsa “vaqt”ni tejash imkonini beradi. Matnda uchraydigan bir xil terminlarni tarjima jarayonida faqat bir hil tarjima qiladi. Bu ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar uchun muhim. Ammo shu bilan bir qatorda Sun'iy Intellect tarjima jarayoniga qanchalik qulaylik va yengillik yaratmasin, u inson tarjimasiga kabi aniq va ifodali qilib bayon etolmaydi. Bunga sabab qilib esa quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Emotsionallikni to'liq ifodalay olmaslik. Sun'iy intellect matni tez tahlil qiladi, lug'aviy moslikni topadi, murakkab grammatik strukturalarni bera oladi. Lekin u matndagi hissiyotni, ohangni, kayfiyatni, munosabatni yetarlicha ochib bera olmaydi.

2. Kontekstni yuzaki tushunish, ya'ni matndagi asosiy maqsad yoki madaniy kontekstni, madaniy konnotatsiyalarni to'liq anglamaydi. Bunda ma'no yo'qolishi yoki noto'g'ri mazmun yuzaga kelishi mumkin.

3. Sun'iy intellect tarjima qilinayotgan matndagi metaforalar, idiomalarni to'liq angalay olmaydi. Natijada, kontekstdagi xissiy, pragmatic va uslubiy taraflarni chiqarib bera olmaydi.

Mana shu sabablardan kelib chiqib zamonaviy tarjimonlar inson va AI vositalarini birlashtirishi lozim, ya'ni "gibrid model" yaratilishi lozim. Gibrid model – bu texnologik savodxonlikni lingvistik kompetensiya bilan uyg'unlashtirishdir. Bu modelda sun'iy intellect terminologik tahlil qiladi, matni avtomatik tarjima qiladi, inson esa ma'noni chuqurlashtirib madaniy moslikni ta'minlaydi.

Zamonaviy tarjimashunoslikda AI va inson hamkorligi yangi yo'nalishni ochib berdi. Oldin mashina tarjimasi inson tarjimasini soddalashtirgan texnika bo'lsa, hozir u inson tafakkurini to'ldiruvchi sun'iy ong sifatida qo'llanilmoqda. Bu esa "human-in-the-loop" jarayonda insonning ishtiroki modeli bo'lib, tarjima sifatini va tezligini oshiradi, samaradorligini o'stiradi. Inson va Sun'iy intellect o'rtasidagi hamkorlikning eng muhim tomoni – bu bir-birini to'ldirishdir, ya'ni komplementarlik. Sun'iy intellect keng qamrovli til bazasini beradi, matni tez tahlil qiladi, xatolarni avtomatik aniqlaydi. Inson esa madaniy moslikni topadi, kontekstni to'liq angalaydi, stilistik bo'yoqdorlik va tabiiylik beradi. Tarjimon va AIning hamkorligi uchun "Raqamli Filolog" bo'lishi kerak: tarjimon nafaqat tilni, balki texnologiyani ham yaxshi bilishi lozim. Bugungi kunda Chat GPT, DeepL va shunga o'xshash tarjima modellari "gibrid model" sifatida qo'llanilyapti, lekin bular ham kamchiliklardan mutlaqo holi emas. Shuning uchun kelajak tarjimonlari faqat tilshunos emas, sun'iy intellect va undagi ma'lumotlarni boshqarishni ham chuqur o'rganmog'i zamon talabi xisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima – bu madaniy almashinuv jarayoni bo'lganligi sababli uni o'quvchiga to'g'ri yetkazib berish ham bir san'atdir. Jadal rivojlanayotgan zamonda inson va SI o'rtasidagi hamkorlik insoniyat uchun eng muhim va dolzarb jarayon xisoblanib, buning natijasida qilingan tarjima yanada sifatli, tez va ishonchli bo'ladi.

**Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. Taxtayeva, M. (2022). Sun'iy intellect va tarjima texnologiyalari. Toshkent. Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
2. Jumaboyev, A. (2020). Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Komilov, N. (2018). Til va tafakkur uyg'unligi. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. Hutchins, W, J, & Somers, H, L. (1992). An introduction to machine translation. London. Academic press.
5. Koehn, P. (2020). Neural machine translation. Cambridge university press.
6. Open AI. (2023). GPT-4. Technical report. Open AI Research Papers.

